

NEMIS VA INGLIZ TILLARIDA SAMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Samarqand davlat chet tillar instituti

MBT yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Yangiboyeva Marjona Ravshan qizi

Ilmiy rahbar: Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich

PhD (pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori),

SamDCHTI dotsenti

Abstract. Ushbu maqolada tana a’zolari ishtirokida shakllangan frazeologik birliklar ko‘rib chiqilib, ularning madaniy, semantik va psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. Frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda turli xalqlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va an’analarini aks ettirishdagi roli yoritilgan. Ingliz va nemis tillaridagi frazeologik birliklar taqqoslanib, ularning ma’no va qo‘llanishidagi o‘xhashlik hamda farqlar aniqlangan. Tadqiqot ko‘rsatadiki, tana a’zolari bilan bog‘liq iboralar til ifodalarini boyitib, tilning madaniy kontekstini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, maqolada frazeologizmlarni to‘g‘ri tarjima qilishning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, iboralar, tana a’zolari, madaniy tilshunoslik, ingliz tili, nemis tili, semantik farqlar, tarjima, til va madaniyat, kontextual ma’no, lingvistik o‘zgarishlar.

Abstract. This article examines phraseological units involving body parts in various languages, focusing on their cultural, semantic, and psychological implications. It highlights the unique characteristics of such idiomatic expressions and their significance in reflecting the worldview, values, and traditions of different societies. By comparing English and German phraseological units, the study identifies similarities and differences in their meanings and usage. The analysis reveals how body-part-related idioms enrich linguistic expression and play a vital role in understanding the cultural context of a language. Additionally, the paper emphasizes the importance of accurate translation of idioms for cross-cultural communication.

Key words: phraseology, idioms, body parts, cultural linguistics, English, German, semantic differences, translation, language and culture, contextual meaning, linguistic changes.

Frazeologik birliklar tilning leksik boyligini ko‘rsatib, xalqning madaniyati, an’analari va tarixiy tajribalarini aks ettiradi. Nemis va ingliz tillarida frazeologik birliklarni qiyosiy o‘rganish nafaqat lingvistik farqlarni, balki o‘xhash madaniy qadriyatlarni ham tushunishga yordam beradi. Misol uchun, biror frazeologizmning

bitta tilda qanday ishlatilishini va boshqa tilda qanday ifodalanishini ko‘rib, biz tilning qanday o‘zgarishini yoki rivojlanishini, shuningdek, har bir xalqning o‘ziga xos psixologik yoki madaniy holatini tushunishimiz mumkin. Bu jarayon, ayniqsa, tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida juda muhimdir. Noto‘g‘ri tarjima, frazeologik birliklarning asl ma’nosini o‘ziga xos madaniyatga moslashtirmaslik, ko‘plab noxush tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, frazeologik birliklar tilshunoslar uchun tilda yuz beradigan o‘zgarishlarni kuzatish, yangi frazeologizmlarni aniqlash, hamda tilni o‘rganishda madaniy kontekstni hisobga olish imkonini beradi. Bu esa tilni faqat grammatika yoki so‘zlashuv nuqtai nazaridan emas, balki uning ijtimoiy va madaniy rolini inobatga olgan holda o‘rganishga imkon beradi.

Frazeologizm (yoki frazeologik birliklar) – bu tilning ma’lum bir semantik ma’noga ega, o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgan va ma’lum bir kontekstda ishlatiladigan so‘z birikmalaridir. Frazeologizmlar odatda o‘z ma’nosida qo‘llanilmaydi. Ya’ni, frazeologizmning ma’nosi uning tarkibidagi so‘zlarning alohida ma’nolaridan farq qiladi. Frazeologizm birikmalarining o‘ziga xosligi shundaki, ular qotib qolgan bo‘lib, shu shaklda ishlatiladi va bunday birikmalarni o‘zgartirish yoki moslashtirish til qoidalariga zid bo‘ladi. Frazeologik birliklar bir marta shakllangandan so‘ng, ularning tuzilishi o‘zarmas va doimiy bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, ularning ma’nosi asosan kontekstga bog’liqdir. Frazeologizmlar ko‘pincha bir xalqning madaniy qadriyatlari, psixologik holati va tarixiy tajribalarini aks ettiradi.

Tana a’zolari frazeologizmlari deganda esa tilda tana a’zolarini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklar tushinilishi barchamizga ma’lumdir. Tana a’zolari, odatda, frazeologizmda figurativ ma’nolarda ishlatiladi. Tana a’zolarining frazeologik birliklarda ishlatilishi, til va madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Til va madaniyatda tana a’zolariga nisbatan turli xil ramzlar, belgilovchi va ifodalovchi ma’nolar ko‘rsatiladi. Bunday frazeologizmlar tilga xos bo‘lib, ko‘plab madaniyatlarda mavjud bo‘lishi mumkin. A.V. Koonin va M. S. Kamenetskyning asarlarida tana a’zolari frazeologizmlari tilga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rshimiz mumkin. Quyida frazeologizmlarning tilga ta’sirining turlarini ko‘rib chiqamiz. Birinchi bo‘lib smartik farqlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, tana a’zolarining frazeologik birliklardagi ma’nolari tilga xos farqlarni ko‘rsatadi. Masalan, “bosh” so‘zi bir tilda boshqaruvi yoki rahbarlikni anglatishi mumkin, boshqa bir tilda esa bu so‘z aqlililik yoki rahbarlikni ifodalashi mumkin. Kulturologik ahamiyatida, tana a’zolariga oid frazeologizmlar, o‘sha tilni gapiruvchi xalqning madaniyati va dunyoqarashini aks ettiradi. Misol uchun, ingliz tilidagi “heart” (yurak) ko‘pincha mehribonlik yoki sodiqlik bilan bog’lanadi, nemis tilida esa “Herz” (yurak) ko‘proq kechirimlilik yoki insoniylikni anglatishi mumkin. Va oxirgisi psixologik ramzlardir. Tana a’zolariga asoslangan frazeologik birliklar ko‘pincha bir xalqning psixologik holati yoki ijtimoiy tuzilishini

aks ettiradi. Misol uchun, ingliz tilidagi “to bite one's tongue” (o‘zini tiyish) iborasi, odamning ichki qarama-qarshiligini va o‘zini nazorat qilishini ifodalaydi.

Tana a’zolari frazeologizm sifatida turli tillar va madaniyatlarda keng qo’llaniladi, chunki ular nafaqat so’zlashuvda, balki xalqning dunyoqarashi, psixologiyasi va tarixiy tajribasini ifodalashda muhim rol o’ynaydi. Har bir frazeologizm o’zining aniq semantik ma’nosи, tarkibi va madaniy konteksti bilan ajralib turadi. Misol uchun, biror tilda tana a’zosi sifatida ishlatilgan so’z yoki ibora boshqa tilga tarjima qilinganda, uning ma’nosи yoki ta’siri o’zgarmasdan qolmasligi mumkin, chunki har bir xalqning o’ziga xos madaniyati va tili mavjud. Masalan, Nemis tilidagi tana a’zosi qatnashgan frazeologik birliklarga nazar tashlasak „Mit dem Kopf durch die Wand“ iborasiga duch kelamiz. Uning ma’nosи odam biron bir ishni o’zining irodasiga qarshi qilishidir. Keyingi ibora esa “Jemandem die Stirn bieten” kimdir bilan qarama-qarshi bo’lish, to‘g‘ri kelmagan fikrni bildirish degan ma’noni bildiradi. Xuddi shunday ingliz tilida ham tana a’zolari qatnashgan iboralar mavjud hisoblanadi. Masalan, “To have a heart of gold“, agar to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qiladigan bo‘lsak “Yurakda oltin bor” deb tarjima qilinadi. Ammo, yuqorida aytganimizdek iboralarda so‘zlar asl ma’nosida qo’llanilmaydi va iboralar ham shunisi bilan boshqa birliklardan farqlanadi. Va bu ibora juda mehribon, samimiy insonni tasvirlashda ishlatiladi. Nemis va ingliz tillaridagi tana a’zolariga oid frazeologik birliklarni o’rganishda semantik va madaniy tafovutlarni tahlil qilish, ikki tilning o’ziga xos tuzilishini va yondashuvini ko‘rsatadi. Misol uchun, ingliz tilidagi "to have cold feet" iborasi, qo‘rquv yoki hayajon holatida bo‘lishni anglatadi, masalan, biror ishni boshlashdan oldin teran o‘ylash yoki qo‘rqish. Nemis tilida esa “kalte Füße haben” iborasi mavjud emas, ammo “kalte Füße bekommen” iborasi mavjud, bu asosan biron-bir vaziyatga tayyor emaslik yoki qo‘rquvni his qilish ma’nosini anglatadi. Bu misol ingliz va nemis tillaridagi tana a’zolari frazeologizmlarining qanday farq qilishini ko‘rsatadi.

Ingliz tilidagi "to have a head in the clouds" iborasi kishi hayolotga berilganini, real dunyodan ajralganini anglatadi. Nemis tilida esa bunday ibora yo‘q, ammo “den Kopf in den Wolken haben” so’z birikmasi tushuniladi, lekin nemis madaniyatida bunday ifodaning qo’llanishi ingliz tilidagidek keng tarqalmagan.

Ingliz tilidagi "to bite someone's head off" iborasi asosan biror kishiga g‘azab yoki qattiq reaksiya ko‘rsatishni bildiradi. Nemis tilida esa “jemandem den Kopf abreißen” iborasi xuddi shunday ma’noga ega, lekin bu ibora nemis tilida ko‘proq haqorat sifatida ishlatiladi va ko‘pincha kuchli his-tuyg‘ularni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu misollar, tana a’zolariga oid frazeologik birliklarning madaniy va semantik tafovutlarini ko‘rsatadi. Har bir frazeologizm o‘z tilining ijtimoiy va madaniy kontekstiga mos ravishda shakllanadi va ishlatiladi.

Ingliz tilidagi „to turn a blind eye“ va nemis tilidagi „ein Auge zudrücken“ iboralari bir-biriga juda o‘xshash ma’nolarga ega bo‘lib, har ikkala frazeologizm ham

biror muammoni ko'rmaslik yoki unga e'tibor bermaslikni ifodalaydi. Ushbu iboralar ko'pincha odamlarning noto'g'ri harakatlarga yoki mavjud bo'lgan noxush holatlarga qarshi befarqligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, ingliz tilida „to turn a blind eye“ iborasi ishchi yoki rahbarning muammolarni ko'rmaslikka qaror qilishi holatida qo'llaniladi: „The manager turned a blind eye to the employee's repeated tardiness because he was an old friend.“ (Menejer ishchining muntazam kechikishlariga e'tibor bermadi, chunki u eski do'sti edi.) Shu bilan birga, nemis tilida „ein Auge zudrücken“ iborasi shunga o'xshash vaziyatlarda ishlatiladi: „Der Chef hat ein Auge zugedrückt, als er sah, dass sein Mitarbeiter oft zu spät kam.“ (Menejer ishchisini tez-tez kechikayotganini ko'rganida, ko'z yumishni afzal ko'rdi.) Ikkala ibora ham, biror vaziyatni ko'rmaslikni, ma'lum bir muammo yoki xatoga qarshi e'tibor bermaslikni anglatadi. Bunday holatlar ijtimoiy va siyosiy kontekstda ham keng tarqalgan bo'lib, hukumatlar yoki tashkilotlar ba'zi muammolarni ko'rmaslikni tanlashi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi misolda: „The government decided to turn a blind eye to the corruption allegations.“ (Hukumat korrupsiya ayblovlarini ko'rmaslikka qaror qildi.) Nemis tilida esa quyidagicha ishlatiladi: „Die Regierung hat ein Auge zugedrückt, als sie von den Korruptionsvorwürfen hörte.“ (Hukumat korrupsiya ayblovlarini eshitganida, ko'z yumishni afzal ko'rdi.) Har ikkala frazeologizm ijtimoiy yoki siyosiy mas'uliyatni inkor etish, noxush vaziyatlarga e'tibor bermaslik yoki noxush holatlarni inkor qilishni bildiradi. Bu, til va madaniyatlararo o'xshashliklarni tushunishda, shuningdek, tilshunoslar va tarjimonlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan misollarni taqdim etadi.

Nemis va ingliz tillarida tana a'zolariga oid frazeologik birliklarda ham ba'zi o'xshashliklar va umumiyligi jihatlar mavjudligini ko'rinishimiz mumkin. Ko'plab frazeologizmlar ikki tilda ham bir xil ma'noga ega bo'lishi. Misol uchun, yaxshi qalbi bo'lish-'to have a heart of gold' (ingliz tili), 'ein Herz aus Gold haben' (nemis tili). Bu yerda ko'rishimiz mumkinki ikkala frazeologik birlik ham odamning xushmuomalalik yoki xayrixohlik sifatlarini bildiryapti. 'To keep an eye on' (ingliz tili) va 'ein Auge auf jemanden werfen' (nemis tili) iboralari ham bir xil ya'ni 'diqqat bilan kuzatish' ma'nosini anglatadi.

Ammo doim ham tillarda frazeologik birliklar bir xil ma'noni anglatmaydi.

- to put one's foot in one's mouth – noto'g'ri yoki ahmoqona gaphirish
- in den Fußstapfen eines anderen treten – boshqa bir kishining izidan borish (yoki uning ishini takrorlash)

Bu frazeologizmda ingliz tilida xato gaphirish haqida, nemis tilida esa biror kishining o'rnini egallash haqida gap boradi.

Frazeologik birliklarning tarjima qilinishidagi qiyinchiliklar, til va madaniyat o'rtasidagi nozik tafovutlarni anglashda muhim ahamiyatga ega. Tarjimonlar, asosan, frazeologizmlarni to'g'ri tarjima qilishda semantik va madaniy kontekstni inobatga

olishlari kerak. Misol uchun, ingliz tilidagi “to break the ice” iborasini nemis tiliga tarjima qilganda, “das Eis brechen” tarzida ifodalansa ham, uning madaniy mazmuni ingliz tilidagi boshlang‘ich ijtimoiy holatni buzishni anglatadi. Nemis tilida esa bu ibora ko‘proq odamlar o‘rtasida dastlabki sovuqlikni yengib o‘tish va birinchi marta suhbat boshlashni anglatadi. Tarjima jarayonida frazeologik birliklarning aniq va mos tarjimasi zarur. Masalan, “to put one’s foot in one’s mouth” (ahmoqona gapirish) iborasi ingliz tilida noto‘g‘ri yoki ahmoqona gapirishni anglatadi, nemis tiliga esa bu ibora “sich in den Fuß schießen” deb tarjima qilinadi, bu esa boshqa ma’noni ifodalashga olib keladi. Tarjimonlar bunday holatlarda frazeologizmlarni moslashtirishga, ya’ni kontekstga qarab tilga xos variantni tanlashga harakat qiladilar. Shuningdek, tarjimonlar frazeologizmlarni literal tarjimadan saqlanishi kerak bo‘lgan holatlarda, ekvivalent frazeologik birliklardan foydalanadilar. Misol uchun, ingliz tilidagi “to give someone a hand” (yordam berish) iborasi nemis tiliga “jemandem eine Hand geben” tarzida bevosa tarjima qilinadi, lekin bu ibora ingliz tilida yordam ko‘rsatishni anglatadi, nemis tilida esa biror kishiga yordam berish uchun boshqacha ifodalanadi, masalan “jemandem helfen.”

Tilshunoslar va tarjimonlar biror tilning rivojlanishi yoki o‘zgarish jarayonlarini, shuningdek, xalqning qadriyatlari, e’tiqodlari va urf-odatlarini tildagi ifodalar orqali qanday aks etishini tahlil qilishlari mumkin. Tarjimonlar esa frazeologizmning to‘g‘ri va mos tarjimasi orqali til va madaniyat o‘rtasidagi nozik tafovutlarni aniqlashga va ularni aniq ifodalashga harakat qiladilar. Shu sababli, tana a’zolari bilan bog’liq frazeologizmlar tilshunoslik va madaniyatshunoslikda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular nafaqat tilning o‘zgarishini, balki o’sha tilni gapiruvchi xalqning ruhiy va madaniy holatini ham aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Koonin, A.V. English Phraseology: A Course of Lectures. Moscow: Vysshaya Shkola, 1970.
2. Kamenetskiy, M.S. Frazeologiya kak razdel lingvistiki. Moscow: Nauka, 1972.
3. Burger, H. Phraseologie: Ein internationales Handbuch der zeitgenössischen Forschung. Berlin: De Gruyter, 2007.
4. Mieder, W. Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Publishing Group, 2004.
5. Fleischer, W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1997.
6. Moon, R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. Oxford: Clarendon Press, 1998.